

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulugʻbek Saydanovich</i> OʻRTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QOʻRIQLASH, QOROVULLIKNI OʻTASH VA XAVFSIZLIKNI TAʼMINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Рахманкулова Адолат Хушбаковна</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> OʻZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Moʻminov Nodirbek Botir oʻgʻli</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Исламутдинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> MEʼYOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI	76-83
<i>Djumanioyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TAʼLIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djoʻraev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqumova Dilafruz</i> IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI	169-172
<i>Berdikulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUIJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	207-210

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i> СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i> РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

Received: 2 June 2025
Accepted: 15 June 2025
Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

CRITERIA OF LEVELS OF SOCIAL KNOWLEDGE

Djo'rayev Anvar Muxammadiyevich

PhD in Philosophy, Associate Professor
ISFT Institute

Abstract. This article analyzes the relationship between empirical and theoretical levels of scientific knowledge, the criteria for their distinction, and the relative and dynamic nature of the boundaries between them. Based on various philosophical schools, especially post-positivism, and through epistemological and methodological approaches, the differences and interconnections between empirical and theoretical cognition, as well as their roles in scientific thinking, are deeply explored. The article differentiates levels of knowledge by object, method, language, conceptual system, and forms of thought. Their unity and contradiction are presented as integral parts of the scientific knowledge process. This study contributes to understanding the structure of scientific knowledge, the development of theoretical concepts, and the mechanisms for constructing scientific theories from empirical data.

Keywords: scientific knowledge, empirical level, theoretical level, epistemology, methodology, logic, thinking, knowledge criteria, experiment, observation, idealization, concept of knowledge, cognitive process, theoretical term, empirical term.

IJTIMOY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI

Djo'raev Anvar Muxamadiyevich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent
ISFT instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari o'rtasidagi munosabatlar, ularni ajratish mezonlari hamda ushbu ikki daraja o'rtasidagi chegaralarning nisbiy va o'zgaruvchan xususiyati tahlil qilinadi. Turli falsafiy oqimlar, ayniqsa postpozitivizm, gnoseologik va metodologik yondashuvlar asosida empirik va nazariy bilishning farqlari, o'zaro bog'liqligi va ilmiy tafakkurdagi o'rni chuqur o'rganiladi. Maqola doirasida bilish darajalari obyekt, metod, til, tushuncha va tafakkur shakllari asosida ajratiladi hamda ularning birligi va qarama-qarshiligi ilmiy bilish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mazkur tadqiqot ilmiy bilim tuzilmasi, nazariy tushunchalarning shakllanishi va empirik ma'lumotlar asosida ilmiy nazariyalarni qurish mexanizmlarini anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ilmiy bilish, empirik daraja, nazariy daraja, gnoseologiya, metodologiya, mantiq, tafakkur, bilim mezonlari, eksperiment, kuzatish, ideallashtirish, bilim tushunchasi, bilish jarayoni, nazariy termin, empirik termin.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N13>

Ilmiy bilish doirasiga, shu jumladan ijtimoiy jarayonlarni bilishning empirik va nazariy jihatlarining o'zaro munosabatiga taalluqli masalalarga ular o'rtasidagi chegarani, ya'ni ularni bir-birlaridan farqlash mezonlarini aniqlash haqidagi masala ham kiradi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ushbu masalada har xil nuqtai nazarlar bildirilgan. Ba'zi mualliflar bilish darajalari bilimlarni hosil qilish usullari bo'yicha farqlanishini ta'kidlaydilar. Boshqalari ularda sxemalashtirish va ideallashtirishning turli usullarini ko'radilar. Bilishning ikki darajasini ajratish va ularning o'zaro munosabati muammosiga doir nuqtai nazarlarning ko'pligi bu

muammoning dolzarbligi va murakkabligidan dalolat beradi. Buning ustiga, fan rivojlanishi bilan empirik va nazariy darajalar o'rtasidagi chegaralar doimiy ravishda o'zgarib turadi, chunki ushbu chegaralar nisbiy bo'lib, ko'p jihatdan bilish jarayonining dialektik rivojlanishiga bog'liq. Bilish jarayonining o'zi rivojlangani sayin empirik jihat nazariy jihatga o'tadi, fanning bir bosqichida nazariy deb hisoblangan masala boshqa, yuqoriroq bosqichida empirik vositalar yordamida bilsa bo'ladigan muammo hisoblanadi[1; 92-101].

Tadqiqotchilar, ayniqsa, tabiatshunoslar orasida aynan amaliy ahamiyatga molik ilmiy bilish yetarli darajada yuqori nazariy maqomga egalik ko'rsatkichi bo'ladi degan fikr chuqur ildiz otgan[2; 560]. Garchi bunday baho nazariy bilimni yanada takomillashtirishni taqozo etsa ham, biroq uning yo'nalishlari va maqsadlarini talqin etishning nazariy mohiyatini tushunishning boshqa turiga tayanuvchi baholardan kelib chiqadigan talqinlardan keskin farq qiladi.

Nazariy bilim mohiyatini tushunishning mazkur turining asosini uning empirik, tajribaviy-eksperimental bilimga bo'lgan munosabati tashkil qiladi. Ilmiy bilimning nazariy maqomini aniqlash jarayonida ushbu munosabatlarning namoyon bo'lish shakllari va jihatlari ko'p va xilma-xildir. «Empirik bilimning mohiyatini ko'rib chiqish va uni nazariy jihat bilan qiyoslash (jumladan, o'zaro qarama-qarshi qo'yish) gnoseologiya, metodologiya va fan mantig'ining ko'plab muhim masalalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularga, masalan, ilmiy bilim hosil qilish, gipotezalarni tekshirish, ilmiy nazariyalarning tuzilishi, ideallashtirish, tiplashtirish, tushuntirishlarning tabiatini aniqlash masalalari kiradi»[3; 49].

Faylasuflar tomonidan empirik va nazariy darajalar munosabatini ilmiy bilishning ikki xil tavsifi dixotomiyasidagi asosiy kalit sifatida mantiqiy-gnoseologik va metodologik anglashlari empirik va nazariy darajalar namoyon bo'ladigan shakllarning ko'pligini aniqlashga imkon berdi. Bular ilmiy bilish darajalari va tafakkur darajalari, bilish faoliyati darajalari yoki fanning tarixiy bosqichlaridir. Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari o'rtasidagi munosabatlarining har bir shakli uchun o'z mezonlari ishlab chiqilgan[1; 92-101]. Bu mezonlardan barcha bilimlar majmuini bilishning hodisadan mohiyatga tomon harakatlanishidagi ichki mexanizmlarni o'rganishning zaruriy bosqichi sifatida empirik va nazariy tarkibiy qismlarga ajratish, bilimning tadqiq etilayotgan tuzilishidagi ayrim elementlarni ifodalash va darajalash uchun foydalaniladi.

Falsafaga oid adabiyotlarda mezonlar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- 1) bilimda aks etadigan aloqalarning turlari;
- 2) obyektning kuzatish mumkinligi;
- 3) o'rganilayotgan obyektning xususiyati;
- 4) o'rganilayotgan obyektning tuzilishi, tarkibi;
- 5) sezgi va tafakkurning o'zaro munosabatiga xos xususiyatlar;
- 6) bilimning haqiqatligini aniqlash usuli;
- 7) bilim olish metodi va boshqalar.

Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalarini bir-biridan ajratish asoslari va mezonlari shunchalik ko'p bo'lgan sharoitda ularni aniqlash va ta'riflash jarayonida qiyinchiliklar mavjudligidan hayratlanmasa ham bo'ladi.

Zamonaviy falsafada, ayniqsa postpozitivizm ta'limotiga asoslangan metodologiyada empirik va nazariy darajalarni bilimning bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshi turlari deb hisoblash qabul qilingan[4; 410]. Biroq bilimning ushbu ikki turi o'rtasidagi farqni aniqlash

mezonini tanlash haqida soʻz ketganida ham kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Masalan, empirik va nazariy darajalar oʻrtasidagi farq bilish faoliyatining ikki yoʻnalishi bilan bogʻliq, degan fikrlarni ham uchratish mumkin. Empirik va nazariy darajalarni farqlash mezonlari bilimning tegishli turlari tayanadigan bazisdagi farqlarda koʻrinadi: empirik bilim bevosita tajribaga, nazariy bilim esa – tafakkur vositalariga tayanadi.

Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash asoslarini va mezonlarini aniqlashda empirik bilimning tuzilishi uning ekstensiv ekanligi, hamda maʼlumotlar va ularning sistemalari oʻrtasida iyerarxik aloqa yoʻqligi bilan izohladi.

Shoʻrolar davri falsafasida ilmiy bilishda empirik va nazariy darajalar oʻzaro munosabatining ayrim jihatlari talqin qilingan. Masalan, baʼzi ilmiy izlanishlarda ilmiy nazariya tarkibidagi nazariy va empirik atamalarning oʻzaro aloqalari va farqlarining mantiqiy-metodologik asoslarini tadqiq etishga formal-mantiqiy yondashuv qoʻllanilgan. Mualliflar asosiy (bazisli) tilni tashkil qiladigan va maʼnolari tabiiy anglashiladigan atamalarni empirik atamalar deb, asosiy tilga mansub boʻlmagan barcha qolgan atamalarni esa nazariy atamalar deb hisoblaydilar[5; 34].

Shu asosda quyidagilarni ajratish mumkin:

- 1) nazariy atamalarga ega boʻlmagan gaplar;
- 2) nazariy atamalarga ega boʻlgan gaplar.

Taʼkidlash lozimki, faktlarga oid gaplarni nomologik hukmlardan ajratish gaplarni ular qaysi atamalarda ifodalanganligiga qarab ajratishga mos keladi. Nazariy atamalarga asoslangan kuzatuv, eksperiment yoki faktlarga oid gaplar, shu bilan birga, nazariy atamalarsiz ifodalangan nomologik hukmlar ham boʻlishi mumkin. Biroq, garchi empirik obyektlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar soʻzlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar boʻlmasa-da, biroq ular muayyan jihatdan aniq qayd etilgan va obyektlar bilan boʻladigan harakatlarga mos kelishi mumkin.

Bu mavzuga doir ilmiy ishlarda nazariy va empirik darajalarning nisbati muammosini formal mantiq nuqtai nazaridan tahlil qilish faqat mantiqiy pozitivizmga[4; 410] xos boʻlmasdan, balki ilmiy dialektik bilish nazariyasiga ham toʻla mos kelishi yaxshi koʻrsatilgan[6; 126-127].

Bilimning empirik va nazariy darajalarini «empirik talqin» tushunchasi yordamida formal-mantiqiy vositalar bilan ajratishning boshqa dalillari ham boʻlishi mumkin.

Odatda, kuzatish atamalari bevosita empirik talqinga egaligi, nazariy atamalar esa bunday talqinga ega emasligi eʼtirof etiladi. Bizningcha esa, ular kuzatuv atamalari bilan bogʻliq darajadagina empirik talqinga egadirlar.

Aytish joizki, «kuzatish» yoki «eksperiment» atamalariga alohida-alohida yondashish toʻgʻri emas. Chunki qanday atamalar mavjudligini hisobga olishgina emas, balki hukmlar ifodalanadigan butun mantiqiy tizimni inobatga olish ham muhim. Koʻpincha nazariy atamalarga tushadigan butun ogʻirlikni mantiqiy vositalarga koʻchirishimiz mumkin boʻladi. Baʼzi bir nazariy atamalarning kvantorlari juda murakkab tarzda chatishib ketganligi tufayli ularni «kuzatish» yoki «eksperiment» atamalari orqali ifodalay olmaymiz. Masalaning bu jihati koʻpincha metodologiyada inobatga olinmaydi. Koʻp hollarda kuzatish atamalari orqali nafaqat kuzatish yoki eksperimentning dastlabki atamalari, balki ular orqali aniq taʼriflanadigan barcha atamalar nazarda tutiladi. Bizningcha, bu fikr shubhali. Chunki hal qiluvchi ibora (formula) juda

murakkab shaklda bo'lishi mumkin. Agar mantiq yetarlicha boy bo'lsa, butun og'irlik mantiqning o'ziga tushishi mumkin.

Ilmiy tushunchalar muhokama qilinganida odatda ularning biz kundalik hayotimizda ishlatadigan tushunchalaridan keskin farq qilishi ta'kidlanadi. Shubhasiz, bu farqlar juda jiddiy, biroq maxsus fanlarning rivojlanish tarixini kuzatadigan bo'lsak, ularning genetik manbai kundalik tajriba va tabiiy til ekanligi ma'lum bo'ladi. Nisbatan keng falsafiy qarashga ega bo'lgan olimlar bunday aloqani inkor etmaganlar. Shu o'rinda A. Eynshteynning qarashlari qiziqarlidir: «Butun fan kundalik tafakkurni takomillashtirishdan boshqa narsa emas»[7; 200].

Lui de Brol tasavvurlarimizni kundalik hayotiy tajribamizdan ilhomlanib hosil qilishimizni ta'kidlagan edi. Biz odatda muayyan tushunchalarni hosil qilamiz, so'ngra soddalashtirish va mavhumlashtirish orqali ayrim soddalar, aniq tushunchalarni o'ylab topamiz, nihoyat ulardan hodisalarni izohlashda foydalanishga urinamiz[8; 186].

Bizningcha, ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari o'rtasidagi muhim farqlar obyekt, faoliyat usullari, uning natijalarini qayta ishlash va ularni tushunchalar shaklida ifodalash usullarida eng aniq namoyon bo'ladi. Uning doirasida empirik va nazariy darajalarni qiyoslash bilim rivojlanishining manbai bo'lmish ularning birligi va ziddiyatlariga xos bo'lgan xususiyatlarda ko'rish imkonini beradi. Masalan, empirik faoliyat – real obyektga, nazariy faoliyat esa ideal obyektga qaratilgan bo'ladi. Empirik bilish amaliyot bilan bevosita aloqasini saqlab qoladi, nazariy bilish esa u bilan bilvosita bog'liq. Nazariy darajada yuksak ideallashtirish, formallashtirish, turli xil mavhumlashtirish turlarini ajratish mavjud bo'lib, ular empirik tafakkurga xos emas.

Empirik va nazariy darajalarning asosiy farqlari obyektga ham namoyon bo'ladi, ya'ni empirik va nazariy darajalarni tahlil qilishda obyektning xususiyatini inobatga olish zarur. Bu hol bilish darajalarining umumiy va muhim jihatlarini aniqlashtirishgagina emas, balki ular asosida turli fanlarda empirik va nazariy darajalarning o'ziga xos xususiyatlarini oqilona tushuntirishga ham imkon beradi. Ilmiy bilim elementlarini tahlil qilish metodologiyasiga asos qilib olingan bunday o'zaro ta'sir bilish nazariyasining rivojlanib borayotgan kategoriyalari sifatida empirik va nazariy darajalarga muayyan qarashni shakllantiradi. Ushbu holda empirik va nazariy darajalar munosabatlari obyektning xususiyati, ya'ni fanlarni empirik va nazariy fanlarga ajratish bilan cheklanadi. Bu hol ilmiy bilishning ushbu ikki darajasi o'rtasidagi chegaraning o'zgaruvchanligi va nisbiyligidan dalolat beradi.

Empirik va nazariy darajalarga tafakkur darajalari sifatida qaraydigan metodologik yo'nalish ham mavjud bo'lib, unda empirik va nazariy darajalar o'rtasidagi chegaralarning mutlaqligi birinchi o'ringa chiqadi. Bu konsepsiya bilish darajalarini hosil bo'ladigan tushunchalarning mantiqiy tuzilishidagi farqlarga asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan konsepsiyalarni o'zaro to'ldirish, birlashtirish zarur, chunki ikkinchi konsepsiya u yoki bu aniq fanning bilish obyektiga xos bo'lgan xususiyat tafakkurning empirik va nazariy darajalari mazmuniga qanday ta'sir etishi haqidagi masalani ko'rmaydi, aksincha, bilishning mazkur darajalari nisbiyligini inobatga olmaydi. Ushbu konsepsiyalarning sintezi «empirik» va «nazariy» bilish kategoriyalarini rivojlanishda ko'rish imkonini beradi va bu bilan ularning bilish jarayonidagi metodologik ahamiyatini oshiradi.

Hozirgi vaqtda nazariya haqidagi ta'limotlar keng rivoj topmoqda. Masalan, endilikda predmet va hodisalarni majmualar (sistemalar) nazariyasidan foydalanib tahlil qilish lozimligi ta'kidlanmoqda. «Majmualar nazariyasiga to'liq asoslanuvchi biologiya, ximiya, oliy

matematika, kibernetika, kosmologiya, kosmonavtika, robototexnika kabi ilm-fan tarmoqlari mavjud. Majmualar nazariyasidan dunyoni anglash usuli sifatida foydalanuvchi fanlar kundankunga ortib bormoqda. Shu kunga kelib, muayyan fanning taraqqiy etganligi va har bir olimning yetuklik darajasi ularning majmualar nazariyasidan naqadar unumli foydalana olishi bilan belgilanmoqda»[9; 28].

Bizning fikrimizcha, empirik bilim shunday bilimki, uni tekshirish va aniqlash chog'ida kuzatish va eksperiment ma'lumotlaridan bevosita foydalanish, binobarin, bunday bilimning mazmunini kuzatiladigan narsalar va munosabatlarga taalluqli atamalar orqali bevosita ifodalash mumkin bo'ladi. Nazariy bilim esa – shunday bilimki, uning haqiqatligini tekshirishni kuzatiladigan narsalar va munosabatlarga doir atamalar orqali bevosita ifodalab bo'lmaydi. Bunday bilimning haqiqiylikini bevosita kuzatish va eksperiment yordamida tekshirib bo'lmaydi, binobarin uning mazmuni bevosita hissiy bilim aniqlay olmaydi.

Ilmiy tushunchalar bevosita tajriba orqali olinishi mumkin bo'lmagan mazmunga ega bo'ladi. Ularda kuzatib bo'lmaydigan, idrok etilmaydigan belgilar bo'ladi. Ular obyektning mohiyatini ifodalaydi. Ilmiy tushunchalarda obyektning ichki mohiyati, xossalari, tuzilishiga xos ichki aloqalar o'z ifodasini topadi. Biroq ayni vaqtda ular ushbu tuzilishga ega bo'lgan obyektlarning ba'zi bir empirik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Empirik va nazariy bilimlarni «kuzatish mumkinligi» belgisi bo'yicha ajratish yetarli emas. Bu avvalo kuzatish belgisining empirik darajaga nisbatan qo'llanilishi bilan bog'liq. Xo'sh, bu holda empirik tadqiqot yoki empirik daraja hali nazariy jihatdan yetarli tushuntirilmagan va tahlil qilinmagan, biroq, albatta, tabiatshunoslik fanlarida empirik tadqiq etiladigan va kuzatish yoki laboratoriya eksperimenti yordamida qayd etiladigan obyektlarni ifodalashga imkon beradigan atamalar ifodalanadigan ma'nodagi «kuzatiladigan» bo'lmaydi. Masalan, ijtimoiy-gumanitar bilimlar o'zining tavsiflovchi, empirik darajasida doimo kundalik ong qayd etgan ijtimoiy hodisalar bilan ish ko'radi. Ushbu ma'noda bu hodisalar aslo «nazariy olam»ga kirmaydi, biroq ularga nisbatan «kuzatish mumkinligi» atamasini qo'llab bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan misoldan ko'rinib turganidek, tadqiqotchilar bilimning empirik va nazariy darajalari chegarasini hamda ularni farqlash mezonlarini ushbu muammoning bir yoki bir qancha jihatlarini ajratib ko'rsatish orqali aniqlashga harakat qilmoqdalar. Bu esa ular o'z tadqiqotlarini muammoni to'liq har tomonlama qamrab olishning qiyinligi sababli bila turib, cheklayotganliklaridan dalolat beradi. Ammo bu mazkur muammoni bunday vositalar bilan hal qilishning iloji yo'qligi haqidagi fikrga olib keladi. Aftidan, shakllangan yondashuvlarga qarama-qarshi ravishda tadqiqotning umumiy yo'nalishi nazariy va empirik daraja muammosini bilish faoliyatining xususiyati bilan bog'liq muammo sifatida (gnoseologik, kategorial-mazmuniy, metodologik va mantiqqa xos har xil jihatlarini qamrab oluvchi) kompleks o'rganishdan iborat bo'lishi kerak.

Ilmiy bilishning empirik darajasida, albatta, fikrlash faoliyati ham amalga oshiriladi. Uning yordamida empirik ma'lumotlar umumlashtiriladi, obyektiv voqelikning har qanday xususiyatlari emas, balki tadqiqot maqsadidan kelib chiqib tanlab olingan xususiyatlari aks ettiriladi. Aks ettirish esa ko'zgudagidek, ya'ni izomorf tarzda bo'lmaydi. Aks ettirish chog'ida ushbu xususiyatlar fikran tartibga solinadi, tasniflanadi, alohida belgilari va qoidalari bo'yicha umumlashtiriladi va tavsiflanadi. Bunda ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash kabi usullaridan keng foydalaniladi. Ta'kidlash zarurki, eksperiment darajasidayoq nazariy tafakkur amal qiladi, zero tadqiqotchi

eksperiment o'tkazayotganida muayyan nazariy bilimlar, g'oyalarga tayanadi, ulardan ilgari surayotgan gipotezasining ishonchliligini tekshirishda foydalanadi.

Biroq, yuqorida aytilganlar bilishning empirik darajasida fikriy faoliyatning mavjudligi miqdor va sifat jihatidan bilishning nazariy darajasidagi bilish jarayonlaridagi fikrlash faoliyati va qayta ishlashning mavjudligiga teng, degan ma'noni bildirmaydi.

Aftidan, empirik va nazariy darajalar o'rtasidagi farq birining tadqiqot obyektlari bilan bevosita aloqada ekanligi, boshqasining esa empirik faktlarni umumlashtirish, chuqurlashtirish, izohlashdan iboratligi va hodisalarga doir hissiy ma'lumotlar majmuidan iborat emasligidagina emas. Bu farq ular o'rtasida o'rganilayotgan obyektни tafakkur orqali o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatida ham mavjudligidadir[10; 33-48].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ключкина О. Б. Построение теории на основе качественных данных // Социол. исслед. – 2000. – № 10. – С. 92–101.
2. Пуанкаре А. О науке. – М.: науки 1983. – 560 с.
3. Степин В.С. Теоретическое знание. 0– М., 2000. – С. 49.
4. Кун Т. Структура научных революций. – М., 2001; Американская социологическая мысль. – М.: МГУ, 1994; Риккерт Г. Науки о природе и науки культуре. – М.: Республика, 1998. – 410 с.
5. Девятко И.Ф. Модели объяснения и логика социологического исследования. – М.: 1996. – С. 34.
6. Алексеев П. В., Панин А. В. Теория познания и диалектика. – М.: Высшая школа, 1991. – С. 126–127.
7. Эйнштейн А. Собрание научных трудов. Т. 4. – М., 1967. – С. 200.
8. Луи де Броль. Революция в физике. (Новая физика и кванты). – М., 1968. – С. 186.
9. Зиёмухамедов Б. Комиллика элтувчи китоб. – Т.: Турон иқбол, 2006. – Б. 28.
10. Штомпка П. Социология социальных изменений. – М., 1996. – С. 33–48.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).